

## MIF – BADIY ADABIYOTNING ENG QADIMIY SHAKLI

**Malikabonu Yunusxo‘jayeva**

*Termiz davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisdagi mif va mifologiyaning kelib chiqishi, uning badiiy adabiyotga aloqadorligi hamda badiiy to‘qimaning ilk ko‘rinishi sifatidagi o‘rni yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *mif, mifologiya, ibtidoiy tasavvur, asar, yunon miflari, obraz, timsol.*

**Annotation.** *This thesis examines the origins of myth and mythology, its relationship to fiction, and its role as the first form of artistic texture.*

**Keywords:** *myth, mythology, primitive imagination, work, Greek myths, image, symbol.*

**Аннотация.** *В данной диссертации исследуются истоки мифа и мифологии, их связь с художественной литературой и их роль как первой формы художественной текстуры.*

**Ключевые слова:** *миф, мифология, первобытное воображение, труд, греческие мифы, образ, символ.*

Insoniyat yaralibdiki, real voqelik, shuningdek, afsona va miflar qurshovida yashaydi. Chunki olam yaralganidan buyon turli qarashlar, bizni o‘rab turgan tabiat haqidagi sir-sinoatlar kishilar ongida dastlabki tasavvurlarni shakllantirgan va bu tasavvurlar mifologik va diniy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Haqiqat hamda to‘qima zamirida mif va asotirlar yotadi. Mif bu odamning borliq, uni o‘rab turgan tabiat, muhit haqidagi ibtidoiy tasavvurlari umumlashmasidir. Miflar dastlabki davrlarda insoniyatning atrof-muhitni tushunish, anglash jarayoniga xizmat qilgan muhim omil hisoblangan, ya‘ni ularni kishilarning o‘zi o‘ylab topgan va ular orqali taskin topishga harakat qilishgan. “Ajdodlarimiz o‘zini o‘rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilgan, butun borliqni borlig‘icha qabul qilgan. Moddiy olamdagi voqelikni idrok etishda obrazlilik va 170rogon ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi bo‘lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lishi, muayyan tabiiy hodisalarning ro‘y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e‘tiqodiy qarashlar asosida dastlabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib chiqqan. Mif – qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir<sup>28</sup>”. “Mif” so‘zi grek tilidan olingan bo‘lib, “mythos – so‘z, rivoyat” ma‘nolarini anglatadi. Miflar og‘zaki shaklda saqlangan va shu davrgacha yetib kelgan. Ular insoniyatning 170rog tafakkuriy

<sup>28</sup> O‘rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. O‘quv qo‘llanma. - Fan ziyosi nashriyoti, 2024.

qobiliyatini va tushunchalarni o'zida aks ettirgan. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasada, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Ya'ni kishilar bu xayoliy to'qimalarga ishonishgan, ularni haqiqat deb o'ylashgan. Shu sababli ham miflar ilm-fan rivojlanishidan oldin odamlar uchun dunyoni tushuntirishning asosiy yo'li bo'lgan. Ilmiy manbalarda mif – atamasining 500 dan ortiqroq ta'rifi mavjudligi qayd qilinadi. Mif badiiy ijodning ilk mahsuli sifatida 171roqan davr adabiyotining barcha namunalari uchun asos hamda badiiy zamin bo'lib xizmat qilgan. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu oddiy rivoyat emas, balki og'zaki muqaddas matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, odamga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatida yuzaga kelgan dunyoqarashdir<sup>29</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, turli millatlarning ertak, doston, eposlari miflar ta'sirida paydo bo'lgan. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'plab 171rog syujet va an'anaviy motivlarning 171roqan171 ildizlari bevosita mifik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar "Avesto", "Iliada", "Ramayana", "Shohnoma", "Kalevala", "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o'rin tutgan<sup>30</sup>. Eng qadimgi miflarning yorqin namunalari qadimgi turk adabiyotida, qadimgi yunon adabiyotida uchraydi va shunisi ahamiyatliki, ushbu xalqlar adabiyoti mifologiyasi boshqa millatlar adabiyoti shakllanishida muhim zamin bo'lgan. Yunonlar mifologik obrazlari hozirgi G'arb adabiyotida, shuningdek, insonlar tafakkuri va turmush tarziga chuqur kirib 171roqan. Antik davrda yunonlar chaqmoq chaqishini Zevsning, dengizdagi dahshatli dovullarni Poseydonning g'azablangani bilan izohlaganlar<sup>31</sup>. Qadimgi turkiy mifologiya esa Sharq xalqlari jumladan Markaziy Osiyo madaniyati hamda etnografiyasida alohida ahamiyatga ega. Ular ta'sirida paydo bo'lgan urf-odat va an'analar hozirgi turkiy qavmlarning ajralmas qismiga aylangan. Qadimgi turkiylarning kosmogonik mifologiyasida quyosh va oy timsoli alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, tongda chiqayotgan quyosh muqaddas sanalgan. Xoqon qarorgohining darvozasi sharqqa, ya'ni quyosh chiqadigan tomonga qarab bunyod etilgan. Xitoy yilnomalarida boshqa muqaddas sanalgan samoviy jismlar qatorida "yetti sayyora" ham eslanadi. Urxun bitigtoshlarida yer makon sifatida tasavvur qilingan bo'lib, to'rt tomon va to'rt burchak bilan chegaralangan: To'rt bulung qo'p yag'i armis (Ktu 2) – To'rt tomon butunlay dushman ekan; yoki tomonlar aniqlashtiriladi: O'ngra qitaniyda, bariya tabg'achda, quriya qurdanta, yiraya og'uzda, aki uch bing sumuz, kaltachimiz bar mu na? (To'n., 14) – Sharqda qitaniyga, janubda tabg'achga, g'arbda qurdanga, shimolda o'g'uzga

<sup>29</sup> Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. O'quv qo'llanma. Toshkent-2023. 14-15-betlar.

<sup>30</sup> T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T., 2020.

<sup>31</sup> Qosimov A., Xo'jayev S. Jahon adabiyoti: antik davrdan XVII asrgacha. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Farg'ona" nashriyoti, 2016. – 232 B

ikki uch ming lashkarimiz (bilan) boraylikmi?<sup>32</sup> Shuningdek, turkiylar osmon va yerni ona sifatida ulug'lashgan. Kul Tigin va Bilga Xoqon bitigtoshlarida bu bilan bog'liq kosmogonik miflarni uchratish mumkin. Qisqa qilib aytganda, mif va asotirlar barcha davrlar adabiyotining bebaho va o'lmas ijod namunalari. Adabiyotning ham haqiqiy san'at darajasiga ko'tarilishida ularning o'rni beqiyosdir.



---

<sup>32</sup> Rahmonov N. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI(Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O'quv qo'llanma. Toshkent-2014.

